ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 10

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
TerDU

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 10

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Intensivlik va darajalanish munosabati 7

ТОЖИЕВ ОЛИМЖОН МУЙДИНОВИЧ
Ўзбек тилида равиш/сифат типидаги лексемаларда мазмуний синкретизм 12

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – hissiyotlar ifodalash vositasi 16

MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O‘G‘LI
Shaxs nomlarining lug‘aviy qatlamdagi o‘rni va tavsifiy belgilari 21

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Ingliz tili biznes diskursida dunyoning paremiologik manzarasi.....24

JO‘RAYEVA NASIBAXON GANIYEVNA
Tarixiy romanlar diskursida so‘zlarning
o‘zaro ma’no munosabatlari 29

RO‘ZIMATOVA DILNOZA MURODOVNA
Ijtimoiy maqomning sotsiolingvistik talqini 32

ZAYNUTDINOVA GULNOZA ANVARJON QIZI
Presedent birliklar va turg‘un birikmalarning
badiiy matndagi poetik ahamiyati (Shuhrat Orif ijodi misolida).....37

VASLIDDINOVA KAMOLA QODIRJON QIZI
Korpus platformalarining til tadqiqotidagi amaliy ahamiyati.....42

НАРМУРОДОВА ДИЛФУЗА АБДУХОЛИК КИЗИ
Типологические и генетические характеристики
терминосистемы civil engineering/строительство 46

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Phraseological units with clothing components in english language.....49

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Muxammaslarda ijtimoiy muammolar tasviri.....51

СМАМУТОВА ШИРИН АЗАТБАЕВНА
Қазіргі қазақ-қарақалпақ прозасындағы әдеби байланыстар.....54

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий рубоийнавис шоир.....57

ГАСЫМОВА СЕВИНДЖ АШУР КЫЗЫ
Традиции праздника новруз в Азербайджане.....60

NADIM MUHAMMAD HUMAYUN
Alisher Navoiying «Hayratul-abror» dostoniga ishlangan «Hammomdagi uchrashuv» miniatyurasiga sharh va Navoiy qurdirgan ba'zi inshootlar.....66

JUMAYEV ILHOM HAMROYEVICH
O'zg'urmish – komil zohid timsoli.....71

КЕНЖЕБАЕВА РОЗА САЙЛАУОВНА
Фариза оңғарсынова және қарақалпақ Ақын-жазушылары арасындағы достық әдеби байланыс.....78

ALIYEVA ORZIGUL
Abdulla Oripov va Shavkat Rahmonning olam hamda insonga munosabatidagi o'ziga xoslik.....81

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TARIXIY ROMANLAR DISKURSIDA SO'ZLARNING O'ZARO MA'NO MUNOSABATLARI

Jo'rayeva Nasibaxon Ganiyevna,
Andijon davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

So'zlarning shakl va ma'no munosabatlari doirasida sinonimiya hodisasi alohida "mavqe"ga ega. Adabiyotlarda sinonimik munosabatlarga quyidagicha izoh beriladi: "Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka bilan ifodalaydigan leksemalar *sinonim* deyiladi. Sinonim leksema orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi. Sinonim leksema sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi"[1].

Muhammad Ali romanlarida eskirgan so'zlarning bir qancha sinonimik qatorlaridan foydalanilganligi adibning Temuriylar davri tilini chuqur o'rganganligi, tahlil qilganligi va o'sha davr leksikasidan unumli foydalanganligini ko'rsatadi. Xususan, adib asarlaridan quyidagi sinonimik qatorlar aniqlandi va ularni yana davom ettirish mumkin:

– joriya, ojiza, cho'ri, kanizak, zaifa, asira, chuhra;
– g'anim, yog'iy;
– ashob , muhib, uns, unsu ulfat;
– shavhar, zavji;
– tarafguzar, hamroz, some, salaf;
– raoyo, baroyo, raiyat, ulus, xosu om, runudu avbosh, avomunnos, avom;
– gardun, dorilfano, dayr (dunyo), ofoq (dunyo), ochun, charxi falak, garduni dun, dayri dun, charxi duk, charxi kajraftor;
– taomil, qavoidu rusum, etok;
– yozug', sahv, bad, gunoh;
– muhoriba (muhoraba), chopqun, savash, yasoq, yasol, nakomishiy, yosomishiy, savq-ul jaysh, ta'biyat-ul jaysh, harb, g'ul;
– mujda, ishorat, rez.

Har bir sinonim so'zning o'ziga xos xususiyati uning badiiy nutqda ishlatilishida ochiq ko'rinadi. Chunki bir sinonimik qatornn tashkil qiluvchi uyada umumiylik bilan juz'iylik birlashadi. Umumiylik ularning hammasi uchun tushuncha birligi bo'lsa, juz'iylik tushunchaning ma'lum bir tomonini ajratib ko'rsatishdir. Sinonimlardagi tasviriylik ham xuddi ana shundadir.[2] Misollarga murojaat qilamiz. *Voqeanavis, ting'chi, qulovuzlar xabarlari bir-biriga mos kelmaydur... (U.s.)*

Voqeanavis – 1) musulmon Sharqi mamlakatlarida saroy mansabi. Voqeanavislar hukmdor topshirig'iga binoan mamlakatda bo'lib o'tgan barcha voqealarni kunma kun yozib borishgan. 2) Rasmiy yo'l bilan qo'yilgan maxfiy kuzatuvchi, ayg'oqchi, josus.[3]

Yuqoridagi jumlada ifodalanayotgan diskursiv vaziyatga ko'ra, *voqeanavis* leksemasining 2-ma'nosi nazarda tutilmoqda.

Qulovuz – harbiy yurishlar chog'ida yo'l ko'rsatuvchi, yo'l boshlovchilar.

Ting'shamoq – shevada tinglamoq, eshitmoq ma'nosida ishlatiladi. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ting'chi tinglovchi, eshituvchidir, kengroq ma'noda *tinglab, eshitib xabar etkazuvchi* ma'nosini ifodalaydi. Shunday qilib, izohlardan ko'rinadiki, jumladagi *voqeanavis, ting'chi, qulovuzlar* mantiqan sinonimik qatorni tashkil qilib, bir-biriga yaqin ma'nolarni, ya'ni "xalq orasida yurib, ma'lumot yig'uvchi" shaxslarni anglatadi. Bu so'zlarning bir o'rinda keltirilishi voqelikni anglash uchun turtki berib, jumlaning mazmunan ko'lamdorligini ta'minlashga xizmmat qilgan.

Lisoniy birliklarning pog'onali (iyerarxik) munosabati ikki xil, ya'ni *partonimik* va *giponimik* tarzda namoyon bo'ladi. Bular bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalagani uchun ularni qiyoslab, farqlab o'rganish zarurati seziladi va ilmiy manbalarda ham shunday yondashuv kuzatiladi.

"Tilshunoslikda lisoniy birlikning butun-bo'lak munosabati *partonimik* (*part* – qicm, bo'lak), tur-jins munosabati *giponimik munosabat* deyiladi. Partonimik munosabatga kirishuvchi qismni ifodalovchi birliklar *partonim*, giponimik munosabatga kirishuvchi

[1] Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.X., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abzalova M.Q.Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006. – B. 391.

[2] Qilichev E. O'zbek tilinint praktik stilistikasi: Ped. in-ning filol. fak. stud. uchun o'quv qo'llanma – Toshkent: O'qituvchi, 1985. (– 104 6.) – Б. 32.

[3] O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. B harfi. – Toshkent: O'zME // https://ziyouz.uz

jins nomlari *giponim* deyiladi. Butunlik *totonim* va tur nomi *giperonim* deyiladi”[1].

Partonimik munosabatlarda so‘zlararo butun-bo‘lak munosabatlarini ifodalash bilan aloqador bo‘lgan bog‘lanishlar tushuniladi. Chunonchi, “daraxt” – “ildiz”, “tana”, “shox”, “barg” kabi so‘zlar o‘zaro butun-bo‘lak munosabatlari bilan bog‘langandir”[2].

N.O.Masharipova partonimik munosabatlarning struktur jihatdan tadqiq etilmaganligini biror-bir buyum, jism, predmet yoki joyning butun yoki bo‘lagi har doim ham o‘ziga xos bo‘lib, ularning strukturasida bir-biriga o‘xshashlik, struktur jihatdan bir xillik uchramasligi, aksincha, butunlay o‘ziga xos birliklar orqali ifodalanishi bilan izohlaydi[3].

Agar giperonim umumiylik. tushunchasini ifodalasa, butun tushunchasini ifodalovchi so‘z yaxlitlik ma’iosini anglatadi. R.Safarova mana shu farqdan kelib chiqqan holda, partonimik va giponimik qatorlarni o‘zaro qiyoslaydi:

1. *Nasr – roman, qissa, hikoya, ocherk, latifa.*
2. *Kitob – muqova, varaq, sahifa*[4].

Partonimik munosabatni tadqiqotchi A.Sobirov *xolo-meronimik munosabat* atamasi bilan ifodalaydi hamda til real borliqning o‘ziga xos in’ikosi ekanligini hisobga olgan holda, uning ikki turini ajratib ko‘rsatadi:

a) tabiiy holdagi butun-bo‘lak munosabati: *osmon – quyosh, oy, yulduzlar; tog‘ – jar, ungur, g‘or, cho‘qqi, so‘qmoq, jilg‘a; bir – yarim, chorak, nimchorak*;

b) sun’iy tarzda hosil qilingan butun-bo‘lak munosabati. Bunga inson tomonidan yaratilgan barcha qurilmalar misol bo‘la oladi. Masalan, *mashina* **xolonim**i *radiator, g‘ildirak, rul, ressor, akkumlyator, motor, svecha, pompa, eshik, salon, fara, nomer* kabi yuzlab meronimlardan tashkil topadi[5].

Adib asarlarida uchraydigan quyidagi til birliklariga murojaat qilamiz: *qurchuq, baxya, o‘tog‘a. Odatdagi darveshlar qalpog‘iga bog‘lanadigan kigiz tasma – uni qurchuq deyishadi – ham ko‘zga tashlanardi. (S.) Boshlarida esa ming baxyali shaftoli gulli taqiya... .(U.s.1.)*

Asarlarda *parqin, qoptol, ustixon, losh* leksemalari uchraydi. *Amir Temur tulporining manglayini, go‘yo hali zamon afsonaviy qanotlari o‘sib chiqadiganday tovlanib ajralib turgan parqinini silab-siypalar, uzun bo‘yni, zo‘r o‘mgani, yaltiragan sag‘risiga shapatilab urib-urib qo‘yar, yuz-ko‘zidan o‘pib erkalardi.(U.s.2.)*

Mazkur jumlada *tulpor – manglay, parqin, bo‘yin, o‘mgan, sag‘ri, yuz-ko‘z* leksemalari partonimik qator hosil qilgan.

Gipo-giperonimik munosabatlar. Tilning lug‘at boyligini tizim (sistema) sifatida o‘rganishda leksemalarning gipo-giperonimik munosabatlariga tayanishning muhim ahamiyatga ega ekanligi R.Safarovaning ilmiy izlanishlarida alohida ta’kidlab o‘tilgan. Ya’ni leksemalarning gipo-giperonimik munosabatlariga tayanish tabiat va jamiyatdagi narsa-predmetlarning, voqea-hodisalarning tildagi nomlari bo‘lgan leksemalarning ma’nolari va shu ma’nolar orqali borliqdagi narsa-hodisalarning o‘zlari haqidagi tushuncha-tasavvurlarni umumlashtirish va farqlash imkonini beradi[6].

Giponim (yunon. ὑπό - ostida, pastda + όνομα - nom) boshqa, umumiyroq tushunchaga nisbatan muayyan mohiyatni ifodalovchi tushuncha.

Giperonim (yunon.Ὑπερ – yuqori) nisbatan umumiy tushunchani ifodalovchi kengroq ma’noli so‘z, jinsdoshlar (xususiyatlar, atributlar) sinfi (to‘plami) nomi. Giperonim (tilshunoslikda) boshqa tushunchaga nisbatan umumiyroq mohiyatni ifodalovchi tushunchadir. Ob’ektlarning ma’lum bir to‘plamiga nisbatan giperonim – bu quyi to‘plamning yuqori to‘plamini aks ettiruvchi tushunchadir[7]. Qisqacha qilib aytganda, *giperonim* – mantiqiy umumlashtirish, *giponim* – cheklashdir.

Demak, giponimiya lug‘at boyligidagi leksemalarning pog‘onali (iyerarxik) aloqasidan kelib chiqadigan ma’no munosabatlaridir. Bunday munosabatlarning mohiyati shundaki, torroq tushuncha yoki ma’no ifodalaydigan leksemalar kengroq tushuncha yoki ma’no ifodalaydigan leksemalar bilan tur (giponim) va jins (giperonim) aloqasida bo‘ladi, bunday aloqa birlashtiruvchi (integral) semalar orqali amalga oshiriladi[8]. Bunday pog‘onali munosabatni Muhammad Alining “Sarbadorlar”, “Ulug‘ saltanat” romanlaridagi tarixiy leksemalar misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, ot so‘z turkumiga mansub bo‘lgan yuzlab leksemalar qirqqa yaqin semalar bilan giponimik (tur) va giperonimik (jins) aloqaga kirishadi. Xotun, ojiza, oqa, xonim, xonzoda, mankuha, malak, bika, begim, joriya, cho‘ri, kanizak leksemalari ayol ma’no-

[1] Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.X., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006. (– 391 б.) – Б. 41.

[2] Qilichev B.E. O‘zbek tilida partonimiya: Filol.fan.nomz. ... disser. – Toshkent, 1997. – B. 27.

[3] Masharipova N.O. So‘zlararo ma’noviy munosabatlarning struktur va funksional xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida): Filol.fan. fals.dokt. (PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2021. – Б. 21.

[4] Safarova R. Giponimiya v uzbekskom yazыke. AKD. – Toshkent: 1990. – Б. 22.

[5] Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistema sifagida tadqiq etish: Filol. fanlari dokt. Diss.... avtoref. –Toshkent, 2005. (- 160 b.) – Б. 143.

[6] Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996

[7] https://ru.wikipedia.org/wiki/Гипоним_и_гипероним

[8] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – Б. 185.

sini ifodalovchi giperonim (jins) bilan aloqaga kirishadi, o‘z navbatida, odam, shaxs ma’nosi bilan ham munosabatga kirishadi. Bunday pog‘onali (iyerarxik) darajalanishni shaxs otlarining o‘ttizdan ortiq turida ko‘rish mumkin. Masalan, vaziri a’zam, podsho, amir, shahanshoh, dorug‘a, qo‘rg‘onbegi, kadxudo, qo‘rchi, o‘nboshi, to‘qsabo, shig‘ovul, hukmdor, tarxon, bakovulboshi, dorug‘a, bek, og‘aboshi, qo‘rchiboshi, xon, amir, tavochi kabi leksemalar mansab egalari nomlari ma’nosida kelishi bilan giponimik aloqaga kirishganligini, jins ma’nosini ifodalay olishi bilan giperonimik aloqaga kirishganligini namoyon qiladi. Yoki sarkarda, sipoh, navkar, sarkor, cherik, jibachi, tiyrgar, tirandoz, kamonmergan, amirlashkar, xabargir, voqeanavis, ting‘chi, qulovuz, chuhra, xufiya, sipohsolor, oriz, sarkarda, navkar, mulozim, sipohiy, suvoriy, naftandoz, ra’dandoz kabi leksemalar harbiy sohaga oid kasb egalari ma’nosini anglatishi bilan bir turga bog‘lanadi. Bunday munosabatni faqat nom ma’nosidagi so‘zlardagina emas, belgi, o‘lchov, harakat ma’nosidagi so‘zlarda ham uchratish mumkin.

Graduonimik lug‘aviy qatorni ajratishda ma’noviy hamda so‘zlararo paradigmatik munosabat omillariga tayaniladi. Graduonimik qatorni ajratishdagi ma’noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida ma’lum bir belgining oz-ko‘pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud[1].

Masalan, Muhammad Alining tarixiy romanlarida graduonimik qatorning quyidagi turlari kuzatildi:

a) hududning katta-kichiklik belgisi asosida: qasaba, muzofot, kent, domon, dog‘goh, ulus (hudud ma’nosida), tumonot, xazorijot, muzofot (viloyat) – qasaba (shahar)

Yo rab, har qasabayu deparada albatta bir benomus saltanat iqboli ishqida kuyib yonadi. (S) Umid ulkim, Samarqand saltanatimizning eng mustahkam o‘rdugohlaridan biriga aylangusidir. (S.) Samarqand muzofoti ushbu zotga iqta’ qilib beriladur. (S.) Sabzavor muzofotida Boshtin qishlog‘iga etganda Abu Siddiq Kalaviy tag‘in xastalanib qoldi. (S.)

b) hujjatning muhim/nomuhimlik, ijtimoiy mavqei darajasi asosida: payg‘om, bitik, inoyatnoma, fathnoma.

Xon Odil Sulton va Navro‘z Sulton Temurbekning chopari etagida Humoyun o‘rduga qadam qo‘yganlaridan ko‘p o‘tmay, Amir Husaynning payg‘omi ham etib keldi. (U.s.1.) *Ushbu muzaffariyat haqida turli mamlakatlarga elchilar yuborilib, muborak fathnomalar etkazildi.* (U.s.1.) *Temurbek! Sadr Sulaymonning Samarqand hokimligiga tayin etilganligi xususida bizning inoyatnomani zudlik bilan Samarqand ahliga oshkor aylangiz! (S.)*

v) pulning miqdoriy belgisiga ko‘ra: kepaki (kepakiy), aqcha, naqdina, jayba, ukalko;

g) turar-joyning holati, ya’ni insonlarning ijtimoiy tabaqalanish darajasi asosida yashashiga ko‘ra: dolon, kulba, o‘tog‘ (o‘tog‘a), olachuq (olachiq), shomiyona, hisor;

d) soliqlarning ijtimoiy mohiyatiga ko‘ra: o‘lpon, zakot, xiroj, juz’ya, yarmoq, suyurg‘ol, moli omon;

e) ijtimoiy tuzilmaning darajasiga ko‘ra: devon, devoni oliy, devoni amlok, devoni mushrif.

Asarlardan antonimik munosabatlarni ifodalovchi leksemalar ham o‘rin olgan. O‘zaro zid ma’noli so‘zlar antonimlardir. Antonimlar ikki so‘z orasidagi tushunchalarning qarama-qarshiligi asosida yuzaga keladi. *Uning ko‘nglida, takabbur va kalondimog‘, ustomon podshohzoda Turon saltanatiga hech ham sud qilmaydur, faqat ziyon keltiradir, degan fikr muhim turib qoldi.* (U.s.2.)

Sud II [*forscha* – foyda, daromad; foiz] 1 *esk.* Foyda, naf. (O‘TIL, 3-jild, 581-b.)

Bu o‘rinda *sud qilmaydur* qo‘shma fe’li *ziyon keltiradir* fe’li bilan antonimlik hosil qilmoqda.

Umuman olganda, tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, Muhammad Ali “Sarbadorlar” va “Ulug‘ saltanat” asarlarida Amir Temur va temuriylar davri ijtimoiy muhitini yorqin bo‘yoqlarda tasvirlash maqsadida tarixiy so‘zlardan unumli foydalangan.

Resume. this article explains the lexsical and semantic features of obsolete words in the discourse of Muhammad Ali’s novels “Sarbadorlar” and “Great Empire“ using examples of form and semantic relations. The article examines the synonymy of obsolete words based on exsamples of analysis, hierarchical relations of lingvistic units: pertonymic and hyponimic relations, hyponymic and hypernymic relations, paradigmatic relations in the allocation of graduonymic words.

Резюме. в данной статье на примерах формы и смысловых отношений объясняются лексико-семантические особенности устаревших слов в дискурсе романов Мухаммеда Али “Сарбадорлар” и “Великая империя”. В статье рассматривается синонимия устаревших слов на основе примеров анализа, иерархических отношений языковых единиц: партонимических и гипонимических отношений, гипонимических и гиперонимических отношений, парадигматических отношений при выделении градуонимических слов.

[1] Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006. (– 391 b.) – Б. 107.